


HOSHIMJON AHMEDOV

**SO'Z
HAYRATLARI
VA SABOQLARI**



HOSHIMJON AHMEDOV

SO‘Z HAYRATI VA SABOQLARI

RISOLA

Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2021

ADABIYOTSHUNOSLIK MAQOLALARI

AYTILMAGAN NIDOLAR

UDK: 373.6
BBK: 74.200.526
A 95

H. Ahmedov

Soʻz hayrati va saboqlari / *uslubiy qoʻllanma*. – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2021, 124 bet.

Badiiy asar avlodlarga, kitobxonga unutilmas taassurotlar, aql ochar maʼnolar bera olgandagina oʻz vazifasini uddalagan boʻladi. Shuningdek, yozuvchi davr dardlarini, zamonasi uchun nojoiz, avlodlar uchun ibrat, saboq boʻlgʻusi muammolarini, iztiroblarini pardalab, “kosa tagida nimkosa” shaklida berib keta olsa, asarning umriga tagʻin umr qoʻshiladi, uning yangi qirralari ochilib boraveradi.

Mazkur monografiyada davrlar osha yashab kelayotgan adabiyot, soʻz sanʼati haqida soʻz yuritiladi, uni oʻqitishda soʻz hayratini singdirish saboqlari tadqiq etilgan.

Badiiy ijod goʻzal tuygʻularni tarbiyalaydi. Yirik nasriy asarlar mavzu, voqea, zamonlar qamrovi, koʻlaming kengligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, epik asarlarining kitobxonlar hu deganda topavermaydigan sirlari ham boʻladi. Buni noziklik yoki nozikfahmlik deymiz. Lekin aynan mana shu jihat hamma asarlarda ham koʻrinavermaydi. Baʼzan bunday oʻrinlar ijodkor taqdirini hal qilishi ham mumkin. Abdulla Qodiriyning qahramon tanlashi, syujet uyushtirishi, asar tagmatniga buyuk haqiqatlarni joylab ketishi va boshqa jihatlarini fikrimizning dalilidir.

Aslida, betakror isteʼdod sohiblarida maʼnoni sirti ifodalash yoki dolzarb, vijdon “ayt” deb turgan gapni syujetning biror tarinogʻiga ulab yuborish usuli doimo sezilib turadi. Masalan, Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanida Miryoqub “epaqa” bilan bogʻliq bir epizod bor. Unda Miryoqub oʻz shaxsiy gʻarazi yoʻlida Noib toʻraga shoir Adoning bir qoʻlyozmasini topshiradi. “Sevgi surmasi ila ochilgan koʻzlar ravshan boʻladi” – bu kabi nozik maʼnoli misralar qimmatini bilgan toʻra bunday qoʻlyozmalar shaxsiy maylimigina emas, imperiya manfaatini ham qondirishini yaxshi bilardi. Ana shu lavhalar ortidan Choʻlpon goʻyo “Ichingdagi sotqinlardan, beyuzlardan qoʻrq deyayotgandek boʻladi.

Ana shunday ishora-lavhalar Oybek va Abdulla Qahhor ijodida ham koʻzga tashlanadi. Keyingi paytda sovet davrida yozilgan asarlar qimmatini biroz pasaydi. Ammo sinchiklab qaralsa, ularda ham asarning ikkinchi umri yashiringan lavhalar bor. Ayniqsa, mafkuraviylashtirishga zoʻr berib urinilgan “Qutlugʻ qon” romanida kishini befarq qoldirmaydigan oʻrinlar bor. Salimboyvachcha bilan restoranda maishatda oʻtirgan Abdushukur rus injenerlarining taqirli suhbatini eshitib qoladi. Ularning tasavvuricha, oʻzbeklar irqi past odamlar. Oʻzbeklarning chordana qurib oʻtirishlari, katta ashulalari madaniyatsiz, vahshiy

Taqrizchilar:

Qurdosh Qahramonov - filologiya fanlari doktori, professor
Margʻuba Abdullayeva - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti Oʻquv-uslubiy kengashining 4-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7274-5-8

© Ahmedov H., 2021.
© “Innovatsiya-Ziyo”, 2021.